



## HADIS VA HAYOT

*Fan va Texnologiyalar Uiverstiteti Tarix kechki 1-kurs 2/4- guruhanabasi  
Turdiyeva Kamola Maxmudjon qizi*

*Ushbu maqola Payg`ambarimiz sollallohu alayhu vasallamdan qolgan ma`lumotlarni o`z ichiga oladi. Alloh subhanahu va taologa u zotning ulug`ligiga munosib hamdu sanolar bo`lsin. Allohnинг oxirgi Rasuli Muhammad mustafoga mukammal salovotu salomlar bo`lsin. Rasulullohning sahabai kiromlariga Alloh taoloning roziligi bo`lsin. Shu bilan birga, bu silsila siz bilan bizni saodat zamoni bo`lmish Payg`ambar sollallohu alayhu vasallamning zaminlariga elitmoqda. U, zoy zamon havosidan nafas olib, o`sha zamon voqealarini qo`limizdan kelganicha o`rganmoqdamiz.*

**Kalit so`zlar:** Hadis, alloh, ilm, rasululloh, sahoba, kalom, oyat, hamd.

Istiqlol bizga shonli o`tmish, fayzli ziyyaratgohlar tarixni o`rganish, ularni obod qilish, bobolarimizni kim ekanliklarini anglash baxtini berdi. O`zbekiston hozirgi kunda gullab- yashnamoqda. Xalqimiz ma`naviyatiga xizmat qilish bilan birga, yurtimizni dunyoga tanitdi.

Ulug` ajdodlarimiz shon-shavkatini dunyoga ko`z-ko`z qilmoqda. Islom olamida „Qur`on“ karimdan keyin ko`zga ko`ringan „Hadis“ sharifdir. Hadis Rasululloh aytgan so`zlar. Abu Muso razuyallohu anhu shunday rivoyat qiladilar .Payg`ambar sollallohu alayhu vasallam bilan Madinaning bog`laridan bir bog`ida edim .Bas, bir kish kelib, eshikni ochishni so`radi .Payg`ambar sollallohu alayhu vasallam „Unga eshikni och va jannatning bashoratini ber“ dedilar. Eshikni ochsam, Abu Bakr ekan. Unga Payg`ambar sollallohu alayhu vasallam bergen bashoratni aytdim. U Allohga hamd aytdi. So`ngra yana bir kish kelib, eshikni ochishni so`radi. Payg`ambar sollallohu alayhu vasallam;



,, Unga eshikni och va jannatning bashoratini ber “dedilar. Eshikni ochsam, Umar ekan. Unga Payg`ambar sollallohu alayhu vasallam bergan bashoratni aytdim. U Allohga hamd aytdi. So`ngra yana bir kish kelib , eshikni ochishini so`radi. Payg`ambar sollallohu alayhu vasallam. „Unga eshikni och va unga keladigan balo uchun jannatning bashoratini ber “ dedilar. Eshikni ochsam , Usmon ekan. Unga Payg`ambar sollallohu alayhu vasallam bergan bashoratni aytdim. U Allohga hamd aytdi , va so`ngra „ Allohning o`zi yordam bersin” , dedi.

Ushbu rivoyatda eshik qoqib kelgan zotlarga jannatning bashorati berilish ularning Islom ummatidagi Payg`ambar sollallohu alayhu vasallamdan keyin tutgan o`rnilariga qarab bo`lmoqda. Ularning eshik qoqish tartiblari ham bejiz emas. Darhaqiqat , Payg`ambar sollallohu alayhu vasallamdan keying ummatning eng afzali Abu Bakr Siddiq , keyin Umar Odil , va so`ngra Usmon Zunnurayin roziyallohu anhumdir. Bu rivoyatda „Unga keladigan balo uchun jannatning bashoratini ber” deilishi ila kelajakda hazrati Usmon Ibn Affon roziyallohu anhuni baloga uchlariga ham ishora qilmoqda. IbnUmar roziyallohu anhu rivoyat qiladilar:,,Payg`ambar sollallohu alayhu vasallamning zamonlarida Abu Bakrga hech kimni teng ko`rmas edik. So`ngara Umarga , so`ngra Usmonga. Keyi esa,Payg`ambar sollallohu alayhu vasallamning sahabalarini bir-birlaridan Afzal qilishni tark qilar edik. Bu rivoyatda esa uch buyuk sahabani Payg`ambar sollallohu alayhu vasallamning zamonlaridayoq boshqalardan Afzal ko`rilgani aniq ekanligi takidlanmoqda. Bunda hazrati Usmon ibn Affon roziyallohu anhuning Islom ummatida uchinchi shaxs ekanliklariga yana bir ishonchi dalil.

Abdulloh ibn Amri rivoyat qiladilar :Rasulloh sollallohu alayhu vasallam „, Odam qiladirgan gunohi arzimlardan biri – ota- onasini haqorat qilmog`idir “\_- dedilar. SHunda „Yo Rasulloh , odam o`z ota-onasini qanday qilib haqorat qilmog`I mumukin? “- deyishdi. Janob Rasululloh sollallohu alayhu vasallam.



,, Birovning ota-onasini so`kkan odam o`z ota-onasini haqorat qilgan bo`ladur : deb javob qildilar. SHuning uchun ham boshqa insonlarni haqorat qilmaslik kerakligi aytilmoqda. Abu Hurayra raziyallohu anhu :,, Men Rasulullohu sollallohu alayhu vasallamning.” Kimki rizqim ulug`, umrim uzoq bo`lsin desa , qarindosh – urug`lariga , mehr – oqibatli bo`lsin ! deganlarini eshitgan men – deydilar. Avvalo qarindosh – urug`imizga , mehr – oqibatli bo`lishimiz aytilmoqda. Hazrati Rasulullohu sollallohu alayhu vasallamning zavjalari Oysha onamiz raziyallohu anhu bunday degan ekanlar. uning gunohiga kafforat bo`lg`usidir : deganlar. Abu Hurayra raziyallohu anhuning rivoyat qilishlaricha , Janob Rasulullohu sollallohu alayhu vasallam bunday debdilar : Mo`min odam balo – qazolarga toqat etmoqlikda sabzi giyoh monanddir. Chunki mo`min har tarafdin shamol esganda egilib , so`ng yana qaddini tiklab oluvchi sabzi giyohi yanlig` balo- qazolarga chidab yengilmag`aydir. Fojir odam ersa , mort arz og`och kabitdir Alloh taolo uni istasa birdaniga sindirib olur . Rasululloh bu hadisda kim kuchli bo`lsa sabzi kabi sinmaydi , barcha balo- qazolarni yengib o`tadi deb nazarda tutganlar. Kim yengib o`tolmasa mort yog`och kabi sinishi nazarda tutilgan. Abu Hurayra raziyallohu anhuning rivoyat qilishlaricha , Hazrat Rasulullo sollallohu alayhu vasallam bunday degan ekanlar :,, Alloh taolo qaysi bandasiga yaxshilikni ravo ko`rsa , o`shanga biror musibatni yuborgay “. Alloh taolo suygan bandasiga musibat beradi. CHunki u yenga oladim deb sinaydi. Ibn Umar raziyallohu anhudan rivoyat qilinadi . Rasulullohu sollallohu alayhu vasallam shunday marhamat qilganlar. Har bir mast qiladigan narsa xamirdir va har bir mast qiladigan narsa haromdir. Kim dunyoda xamir ichsa va vafot etsa va unga mukkasidan ketgan bo`lsa oxiratda ichmaydi. Ya`ni Rasululloh shunday demoqochilar jannatga kirmaydi , jannatdagi nasibasini ichmaydi deyilgan. Abdulloh ibn Umar raziyallohu anhu rivoyat qiladilar : Rasululloh sollallohu alayhu vasallam :,, Kimki bu dunyoda mast qiluvchi ichimlik ichgan bo`lsa-yu, keyin tavba qilmagan bo`lsa



oxiratda tavba qilmoqdan mahrum qilingaydir !” – dedilar. Rib`iy ibn Hiroshdan rivoyat qilinishicha , u Ali raziyallohu anhu xutba qilayotib „ Rasululloh sollallohu alayhu vasallam”. Sizlar menga yolg`on to`qimanglar zero , kim menga yolg`on to`qisa , albatta, jahanamga kiradi , aytganlarini, eshitganlar . Jobir ibn Abdulloh raziyallohu anhu aytadilar : Rasululloh sollallohu alayhu vasallam : Kim moddiy jihatdan birovga yaxshilik qilsa , unga ham yaxshilik qaytarilsin . Yaxshlik qilishga qurbi kelmasa , u kishini g`oyibona maqtasini , chunki maqtash tashakkur o`rnida o`tadi. Ammo u kishinin yaxshiligini yashirsa , undan tomgan , yaxshilikni bilmagan bo`ladi . Kim o`zida yo`q narsani menda falon narsa bor deb maqtansa , ikki qavat kiyim bilan o`raglan hisoblanadi ,- dedilar. Bu hadisda bizga qilingan yaxshilikni bilishimiz va qaytarishga qurbimiz yetmasa u kishini maqtasak ham yaxshilik qilgan bo`lishimiz nazarda tutilgan. Abu Hurayra raziyallohu anhudan rivoyat qilinadi : Rasululloh sollallohu alayhu vasallam . Islom jihatdan saviyasi balandlaringiz xayrli bo`lganidek , axloq jihatdan esa eng yaxshilaringiz xayrlidir, - dedilar. Muoviya ibn Abu Sufyon raziyallohu anhu aytadilar : Men Rasululloh sollallohu alayhu vasallamdan bir so`z eshitdim . Shu so`z tufayli Alloh taolo menga manfaat yetkazadi. Rasululloh sollallohu alayhu vasallam „, Sen kishlarning aybi va kamchilagini surishtirib yursang , ularni buzib qo`ysan ” degan edilar . SHuning uchun men ularni buzib qo`ymay deb , kamchiliklarini tekshirib yurmayman dedilar . Rasululloh sollallohu alayhu vasallam nima demoqchilar. Kishlar aybini qidirib , uni fosh qilinsa , oshkora qilinib yuradigan gunohlar maxfiylashadi . Unda bir gunoh o`rniga ikki gunoh qilib , axloq tanazzulga yuz tutadilar deganlar. Anas ibn Malik raziyallohu anhudan rivoyat qilinadi : Rasulullohu sollallohu alayhu vasallam : Bir- birngiz bilan achchiqlashmang , hasad qilmang , teskari qarab ketmang . Ey , Alloh taoloning bandalari ! Bir- biringiz bilan aka- uka bo`linglar , hech bir musulmon



kishi o`z birodaridan uch kechadan ortiq arazlab yurishi joiz emas – dedilar . Musulmon kishi bir- bir bilan achchiqlanmasligi kerakligi aytilmoqda.

Uboda ibn Somit rivoyat qiladilar : Rasulullohu sollallohu alayhu vasallam dedilar : Siz menga olti narsaga kafolat bering , men ham sizga jannat kafolatini berayin : rost so`zlang , va`dangizni bajaring , omonatga rioya qiling , nomusingizni saqlang , haromga nazar qilishdan tiyiling va qo`lingizni haromdan torting. Shu narsalardan o`zini tortgan insonga jannat kafolatini bergenlar . Abu Hurayra raziyallohu anhudan rivoyat qilinadi : Rasulullohu sollallohu alayhu vasallam dedilar, Bandalar tong ottirgan kun borki , unda ikki farishta tushib , ulardan biri Allohimi ! Infoq qiluvchiga o`rnini qoplaydigan narsa ato et – deydi . Ikkinchisi Allohim! xasis , ziqnalarga talofat bergin – deydi . Infoq qiluvchi – o`z yaqinlari yoki boshqa insonlarning ehtiyojlarini qondirish uchun yordam beruvchilar uchun o`rnini qoplaydigan narsa ato etishini so`raydi. Bahz ibn Hakim raziyallohu anhu ( r. a.) otasi va bobosidan rivoyat qiladi , bobosi aytdi : „Rasulullohdan ‘, Ey Rasululloh , men yaxshiligmni kimga qilsam bo`ladi ?- deb so`radim , „Onangga” dedilar . Men shu savolimni uch marotaba qaytarsam ham . Rasululloh „Onangga “- deyverdilar : To`rtinchi marotaba so`raganimda : Otangga va yaqin bo`lgan qarindoshlaringga – dedilar. Abu Muso Ash`ariy raziyallohu anhuning o`g`li Abu Burda raziyallohu anhuning aytishicha Abdulloh ibn Umar raziyallohu anhuning bir yamanlik odam o`z onasini opchilab , xonayi Ka`bani tavof qildirib yurganini ko`rdilar . U odam quydagi baytni ohang bilan o`qirdi.

Onayi zorim uchun bo`ynimni eggan tevaman,

Tevaga mingan onam horsalar ham men charchamam

U , shuni o`qib turib Abdullohga qaradi-da , Ey Abdulloh ibn Umar , mana shu xizmatim bilan men onamning haqini ado qila oldimi ? deb so`radi : Yo`q bu xizmating seni tug`ish vaqtida onangni qiy nab tutgan to`lg`oqlarining bittasiga ham barobar emas – dedilar.



Uvays Qaraniyning onasiga qilgan xizmatlarini sayyidul bashar , Nabiy alayhu – salom o`z hadislarida ulug`lab , maqtab marhamat habarini beradilar. Onasiga juda ko`p xizmat qilgani tufayli uning ismini eshitgan kishi ongida „ oansiga yaxshilik qilgan solih inson ‘’ qiyofasida gavdalanadigan bo`ldi. Yuqorida keltirilgan hadisdan bilishimiz mumkinki onalarimiz oldilaridagi haqilarini ado qilish uchun nimaki qilsak ham kam ekanligi bilishimiz mumkin. Bejizga „ Jannat onalar oyoqlari ostidadir “ deb aytilmagan. Onaning ahamiyatini va unga bo`lgan hurmatini ta`kidlaydi unga xizmat qilish va uning duolarini olish , jannatga erishishning bir yo`l sifatida ko`rsatiladi onalarimizni tariflashga til ojiz. Ona borki, dunyo go`zal

**Foydalangan adabiyotlar ro`yxati:**

1. SHayx Muhammad Sobiq Muhammad Yusuf // Abu Muso // Ibn Umar // Abdulloh ibn Amri // . „ SHarq “ nashiryoti kompaniyasi bosh tahririyoti Toshkent – 2002. – 8 – 10 bet.
2. Imam Al – Buxoriy. // Abu Hurayra // Ibn Umar// Rib`iy ibn Hirosh // Jobir ibn Abdulloh // Muoviy ibn Abu Sufyon // Anos ibn Malik // Bahz ibn Hakim // Abu Muso Ash`ariy. „G`afur G`ulom “ nashiryoti . 2020 – 2021. – 132 – 139 bet.